

## VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 539- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

### Korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




#### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,

(2023- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (97,8 %), tashish va saqlash (90,2 %), savdo (89,0 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (80,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (79,5 %), axborot va aloqa (78,5 %), qurilish (76,6 %), sanoat (76,8 %) va boshqa turdagi xizmatlar (92,4 %) sohalariga to'g'ri keladi.




**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(1- iyul holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra 42 057 tani tashkil etib, 2022-yilning shu davriga solishtirilganda 7 246 (49 303) taga yoki 85,3 %ga kamaygan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 33,7 % savdo, 18,9 % sanoat, 6,9 % qurilish, 5,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,3 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 3,7 % tashish va saqlash, 2,1 % axborot va aloqa, 2,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 22,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


## 2023- yil 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o'sish surati, %

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- iyul holatiga 36 074 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxona – 8 395 ta, oilaviy korxona - 5 032 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 22 129 ta, aksiyadorlik jamiyati - 50 ta va boshqa turdagi korxonalar - 468 tani tashkil etadi.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra 32,0 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 mingtaga yoki 122,1 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 mingtaga yoki 88,7 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 287 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 353 taga yoki 112,0 %ga ko'payganni ko'rish mumkin.



## Yangi tashkil yetilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (yanvar-iyun oylarida)




2023- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar 4 517 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (18,5%), Qo'qon shahar (8,2%), Quvasoy shahar (6,7%), Toshloq tumani (6,6%), Marg'ilon shahar (6,4%), Quva tumani (6,3%), Dang'ara tumani (4,6%), Oltiariq tumani (4,5%), Bag'dod tumani (4,3%), Buvayda tumani (4,2%), O'zbekiston tumani (4,0%), Beshariq tumani (3,9%), Uchko'prik tumani (3,9%), Farg'ona tumani (3,6%), Furqat tumani (3,0%), Yozyovon tumani (3,0%), Rishton tumani (2,9%), So'x tumani (2,7%), Qo'shtepa tumani (2,7%) hissalariga to'g'ri keladi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, 1-iyul holatiga ko'ra birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 1-iyul holatiga ko'ra birlikda)




Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-iyul holatiga ko'ra birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2023- yil 1- iyul holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 644 tani tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80 taga yoki 114,2 %ga o'sgan.

■ Ro'yxatdan o'tgan    ■ Faoliyat ko'rsatayotgan    ■ Yangi tashkil etilgan




### Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

*2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda*



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi (2023- yil  
1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**

*(1- iyul holatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)*

	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>	<b>348</b>	<b>433</b>	<b>494</b>	<b>552</b>	<b>449</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	24	26	28	29	23
<b>Sanoat</b>	205	250	272	291	221
<b>Qurilish</b>	7	12	19	29	30
<b>Savdo</b>	61	76	100	113	98
<b>Tashish va saqlash</b>	6	12	14	14	16
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	13	15	13	15	14
<b>Axborot va aloqa</b>	4	4	4	5	3
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	7	9	9	10	8
<b>Boshqa turlar</b>	21	29	35	46	36

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimida soni

(2023- yil 1- iyul holatiga, birlikda)


	Ro'yxatga olinganlar	2023- yil yanvar-iyun	
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>644</b>	<b>41</b>	<b>4</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	204	15	1
Qo'qon	78	1	-
Quvasoy	41	3	-
Marg'ilon	37	2	-
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	29	-	-
Qo'shtepa	13	1	-
Bag'dod	17	3	-
Buvayda	13	-	-
Beshariq	15	2	-
Quva	26	3	1
Uchko'prik	27	4	1
Rishton	13	-	-
So'x	9	-	-
Toshloq	19	2	-
O'zbekiston	32	3	1
Farg'ona	28	1	-
Dang'ara	21	-	-
Furqat	14	1	-
Yozyovon	8	-	-

## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1-iyul holatiga 7 533 tani tashkil etib, ulardan 5 032 tasi yoki 66,8 % faoliyat yuritmoqda.


## Oilaviy korxonalarning yillar kesimidagi soni

(1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,

(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni

(birlikda)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>	<i>2023- yil yanvar-iyun</i>	
		<i>yangi tashkil etilgan</i>	<i>tugatilgan</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>7 533</b>	<b>538</b>	<b>134</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	761	46	9
Qo'qon	571	46	20
Quvasoy	380	71	12
Marg'ilon	474	14	7
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	606	33	5
Qo'shtepa	193	12	3
Bag'dod	395	17	6
Buvayda	341	9	1
Beshariq	325	21	6
Quva	282	30	5
Uchko'prik	364	17	2
Rishton	727	32	11
So'x	146	26	1
Toshloq	271	15	6
O'zbekiston	487	29	14
Farg'ona	286	26	4
Dang'ara	509	61	14
Furqat	330	25	5
Yozyovon	85	8	3

**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.